



ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING IMLOVIY XATOLARINI BARTARAF QILISH USULLARI

Ilmiy rahbar: ¹**Buranova Shoxista Menglibaevna**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili kafedrası p.f.n dotsent,

²**Mavlonberdiyeva Nafisa Ozod qizi**

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Turkiy tillar fakulteti, O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7805552>

ARTICLE INFO

Received: 28th March 2023

Accepted: 05th April 2023

Online: 06th April 2023

KEY WORDS

Orfografik qoida, imloviy xato, diktant, izohli yozuv, punktuatsion qoida, ta'limiy diktant, imloviy savodxonlik, qo'pol xatolar, qo'pol bo'lmagan xatolar, lug'at diktanti, yozma nutq, og'zaki nutq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ona tili darslarida o'quvchilarning yozma ishlarda imloviy xatolarga yo'l qo'yishining sabablari haqida aytib o'tildi. O'quvchilarning og'zaki nutqida yuz beradigan imloviy xatolarning yozma nutqiga ta'sir qilishi va ularni bartaraf qilish usullari haqida so'z yuritildi.

O'quvchilar maktabga ilk qadam qo'yganida, albatta, ularning og'zaki va yozma nutqida mahalliy sheva ta'siri bo'ladi. O'quvchi nutqida ana shu mahalliy shevaning ta'sirida yozma ishlarda va og'zaki nutqida ko'plab imlo xatolarga yo'l qo'yadi. Chunki dars jarayonlarida mahalliy shevaning adabiy tildagi muqobili haqida so'z yuritilmaganligi sababli o'quvchilar so'zlar talaffuzda qanday aytilsa, shundayligicha yozishadi. O'quvchiga mustaqil ravishda mavzu yuzasidan matn yaratish vazifasi berilsa, matn yozish jarayonida so'zlarning to'g'ri yozish qoidalari va punktuatsion xatolar yuborishi mumkin. O'quvchining matn yaratish jarayonida bunday imlo xatolarga yo'l qo'ymasligi uchun orfografiya, orfoepiya, punktuatsiya kabi tilshunoslik bo'limlaridan yetarlicha bilimga ega bo'lishi kerak. "Nemis faylasufi A.Shopengauer odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang deb yozgan ekan. Darhaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangiz-u, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik – odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi"ⁱ. Nemis faylasufi A.Shopengauerning fikrini tahlil qiladigan bo'lsak, albatta, inson o'zi haqida boshqalarning fikri ijobiy bo'lishini xohlasa, uning nutqini tinglashi kerak. O'qituvchi darsni mazmunli tushuntirib berishga tayyorlanib keladi va dars jarayonida o'quvchilarga mavzu tushunarli bo'lishi uchun kuyunib gapiradiki, o'quvchilar uni tinglashmasa odobsizlikdan hisoblanadi.

O'quvchilar yozma ishlarda, diktant yozishda so'zlardagi harf elementlarini tashlab ketib, ba'zi harflarni tushirib qoldirish va so'zlardagi harflarning o'rnini almashtirish, so'zlarni tahlil qilishda jarangli-jarangsiz undoshlarning o'rnini almashtirish, masalan; maktab –



maktab kabi so'zlarda maktab deb talaffuz qilinadi, ammo maktab deya yozilishi haqida o'quvchida tushuncha bo'lmasa, diktant yozayotganda maktab shaklini yozadi va shu bilan imloviy xatoga yo'l qo'yadi; gap ichidagi kelgan qator undoshli so'zlar hamda yonma-yon kelgan bir xil undoshlardan birini tashlab ketib yozish, masalan, do'st – do's, daraxt – darax, go'sht – go'sh kabi so'zlarni talaffuz qilganicha yozish yoki talaffuz qilganda tushib qoladigan undoshlarni yozuvda ham tashlab ketib yozish, bo'g'in ko'chirish, bosh harflarni qo'llash borasidagi imloviy xatolar hamda so'z va shakl yasovchi qo'shimchalarning o'rnini almashtirib xato yozish kabi imloviy xatolar yuzaga kelishi mumkin.

Ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy xatolarni bartaraf qilishda o'qituvchi dars jarayonida quyidagicha orfografik mashg'ulotlar o'tkazib turishi kerak:

1. So'z va shakllarning yozilishini kuzatish, qiyoslash va tahlil qilish;
2. Orfografik qoidalarni o'zlashtirish;
3. Bu qoidalarni yozuvda tatbiq qilish bo'yicha mashqlar olib borish"ⁱⁱ.

Albatta, so'zlarning yozilishini kuzatish, ularning talaffuzi va yozilishi o'rtasidagi farqni qiyoslab tahlil qilish hamda orfografik qoidalarni o'zlashtirish orqali yozuvda ularni tatbiq qilish bo'yicha mashqlar bajarish kabi usullar o'quvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi bir yil davomida dars jarayonlarida orfografik qoidalarga asosan yoziladigan so'zlarning qanday yozilishi to'g'risida bilim berishi natijasida o'quvchining o'zlashtirilgan orfografik qoidalarga oid lug'at boyligi rivojlanadi. Dars jarayonlarida yozma ishlarni o'tkazish o'quvchilarning nutqini o'stirishga, fikrlash doirasining kengayishi hamda orfografik imlo qoidalarga asosan so'zlarni to'g'ri yozishga o'rgatadi. O'quvchining yozma nutqidagi imloviy savodxonligini rivojlantirish uchun o'qituvchi muntazam ravishda diktant yozdirib turishi nafaqat diktant, balki insho, bayon, esse, matn ustida ishlab gaplar tuzish kabi yozma ish va topshiriqlar o'tkazib turishi maqsadga muvofiq. "Ona tili darslarida o'quvchilarning imlo savodxonligini oshirishda diktantlarning ahamiyati kattadir. O'quvchilar tomonidan yozilgan diktant ular yo'l qo'ygan xatolarni va uning yuzaga kelish sabablarini aniqlashda ham o'qituvchiga yordam beradi. Diktant orqali o'quvchilarning grammatik mavzularni qay darajada o'zlashtirishlari ham aniqlanadi. Shuning uchun ona tili darslarida muntazam ravishda yozma ishning bu turidan samarali foydalanish va o'quvchilarning dars faoliyatiga chuqurroq olib kirish kerak"ⁱⁱⁱ. Dars jarayonlarida o'quvchilarga diktant yozdirish o'quvchilarning imloviy savodxonligini rivojlantirish hamda o'quvchilarning diktant yozishda yo'l qo'yadigan xatolarni bartaraf qilishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli dars jarayonlarida o'quvchilarga mavzu yuzasidan muntazam ravishda diktant yozdirish zarur. Chunki " o'quvchi diktant yozayotganda xato qilmasligi uchun orfografik va punktuatsion qoidalarni eslashga harakat qiladi"^{iv}.

O'quvchilar yozma ish yozishda quyidagicha xatolarga yo'l qo'yishlari mumkin: "qo'pol (jiddiy) va qo'pol bo'lmagan(juz'iy)xatolar uchrashi mumkin. Qo'pol, ya'ni jiddiy xatolar: dastur hajmi va talab darajasidagi ona tili hodisalarini yaxshi o'zlashtirmaslik, har bir sinf uchun mo'ljallangan va o'tilgan orfografik punktuatsion qoidalarni puxta bilmaslik. Ulardan yozma ishlarda to'g'ri foydalanmaslik:

- Sodir bo'lgan xato tufayli so'z ma'nosi va gap mazmunining jiddiy o'zgarishi hamda farqlanishi (masalan; qattiq o'rnida qatiq, davo o'rnida da'vo, sur'at o'rnida surat yozish kabi holatlar);



- Juft so'zlarni yozishda, satrdan satrga ko'chirishda defis qo'ymaslik, shuningdek, defis o'rnida tire ishlatish va aksincha;
- Ko'ngil, tongi, o'zingiz kabi so'zlarda ng harfiy birikmani ajratib ko'chirish;
- Muayyan gapga xos tinish belgilarini qo'llamaslik yoki noo'rin ishlatish (masalan; gap oxirida qo'yilishi shart bo'lgan nuqta, so'roq, undov, ko'p nuqta, nuqtali vergul kabilarni tushurib qoldirish;
- So'z shakllarini qorishtirish, almashtirib qo'llash, masalan, yasovchi qo'shimchalarni noto'g'ri ishlatish: bevosita – bavoosita; beobro' – baobro'; sinfdosh – hamsinf; hamqishloq – qishloqdosh va shu kabilar”^v.

O'qituvchi dars jarayonida tushuntirgan mavzularni vaqtida o'zlashtirmasligi, har bir sinfdan o'rgatiladigan orfografik punktuatsion qoidalarni, ya'ni tinish belgilarini qaysi o'rinda qo'llanilish qoidalarni puxta o'zlashtirmaganligi sababli quyidagi kabi imloviy xatolar uchraydi:

“Dastur doirasidan tashqari va eslatmalarda berilgan qoidalarni bilmaslik, yozma ishlarda ularga amal qilmaslik;

Sheva xatolari (ona o'rnida oyi, aya, momo: chaqimchi o'rnida chaqimboz; kiyik o'rnida kiyikcha, mol bozor o'rnida hayvon bozor kabi qo'llashlar;)

Bir tinish belgisi o'rnida ikkinchisini almashtirib qo'llash yoki qo'sh tinish belgilardan birortasini tushirib qoldirish (masalan; qavslar yoki qo'shtirnoqlardan bir elementini tushurib qoldirish kabi);

Ba'zi joy nomlari, shaxs otlari yoki personajlar ismini nuqsonli yozish (Ham-robibi – Hamrobuvi, Shcherdin – Shedrin);

Tinish belgilarining birgalikda ishlatilishidagi tartibning buzilishi yoki bittasining tushib qolishi: ?! shaklda emas, !? shaklda qo'llash; !... shaklda emas, ??? shaklda qo'llash kabi;

Sostavli atoqli atamalarni yozishda bosh harflarni nuqsonli ishlatish: Xalqlar do'stligi saroyi – Xalqlar Do'stligi Saroyi; Yangi Urganch – yangi Urganch kabi.

Yarim qavsdan so'ng nuqta ishlatish yoki undan keyingi so'zni(turdosh otni) bosh harf bilan yozish;

Ba'zi so'zlarni ikki xil ishlatish: oliy himmat – olihimmat; hamma vaqt – hammavaqt; obi havo – ob-havo^{vi} kabi. O'quvchilardagi imloviy xatolarning yuzaga kelish sababi shundaki, ularning dars jarayonida mavzuni yaxshi o'zlashtirmaganligi yoki yetarli darajada tushunmaganligidadir. O'quvchining nutqida mahalliy sheva yoki so'zlarni talaffuz qilishda tovushlarni bir-biri bilan almashtirib gapirish xususiyatlari uchrasa, albatta, shunga o'xshash hodisalar diktant yozishda ham uchraydi. Chunki o'quvchi diktant yozishda so'zlarning talaffuzini qanday eshitsa, shu holicha ya'ni eshitganidek yozadi. Masalan, go'sht, do'st, daraxt kabi so'zlarda oxiridagi tovush tushirib qoldirilgan holda talaffuz qilinadi. Ularning talaffuz va yozilish to'g'risidagi imlo qoidalari haqida tushuncha berib o'tilmasa, talaffuzdagidek go'sh, do's, darax kabi talaffuz qilib diktantda ham shunday yozib ketadi. O'quvchilarning imloviy savodxonligini rivojlantirishda o'qituvchi o'quvchilar bilan muntazam ravishda imloviy qoidalar ustida ishlashgan holda ta'limiy diktantlarni o'tkazishi va diktant asosida o'quvchilarning imloviy savodxonligini tekshirib, ularning diktant yozishda yo'l qo'ygan imloviy xatolari to'g'risida tahlil qilib, so'zlarning qay holda yozilishi mumkinligi to'g'risida bahslashishi zarur. O'quvchilardagi imloviy xatolarni bartaraf qilishda faqatgina diktant



yoziygina emas, balki bir qancha mashqlar, metodik o'yinlar o'tkazgan holda ham amalga oshirish mumkin. Masalan, to'g'ri yoziyg qoidalariga asosan quyidagicha mashqlardan foydalansa, maqsadga muvofiq: o'quvchilarga jarangli undosh bilan tugagan so'zlarni jarangsiz undosh bilan almashtirgan holda talaffuz qildirib, lug'at diktantlari o'tkazish hamda ayrim so'zlarda uchraydigan qo'sh undoshli so'zlarning (masalan; issiq – isiq, qattiq – qatiq, arra – ara kabi) talaffuzi to'g'risida suhbatlashib ularning bittasini tushirib talaffuz qilgan holda lug'at diktantlarini o'tkazish; turdosh va atoqli otlardagi imloviy xatolarni bartaraf qilishda esa turdosh va atoqli otlarga misollar keltirib, o'quvchilarga gaplar tuzdirish hamda bitta so'zning ikki xilda, ya'ni ham kichik harf bilan, ham bosh harf bilan yoziyladigan so'zlar topib gaplar tuzdirish (masalan; Sayyohlar orolda qolish haqida bir qarorga kelishdi. O'qituvchi geografiya darsida o'quvchilarga Orol dengizi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi.) kabi mashqlar orqali biror bir natijaga erishish mumkin. Ona tili darslarida so'zlardagi ayrim unilarni tushirib qoldirish va talaffuzi hamda yoziylashida farq qiladigan so'zlarda uchraydigan imloviy xatolarni bartaraf qilishda quyidagicha topshiriqlar berish samarali foyda beradi. Masalan; **“Unli tovushlarning tagiga chizing.**

Urush-urish, sir-sur, tur-tir, qish-qush, tish-tush, burush-burish, yumish-yumush, tushum-tushim, chiz-cho'z, tig'-tug', uq-o'q, sur-so'r, to'r-tur, un-in, ming-mung, til-tul, soda-sada, Sora-sara, olam-alam.

Aytilishi o'xshash bo'lgan undosh tovushlarni ajrating.

Xiyla-hiyla, xush-hush, xo'p-xo'b, bod-bot, ham-xam, tuzsiz-tussiz, xol-hol, xalqqa-halqa, rux-ruh, shox-shoh, uxladi-uhladi, xat-had, tub-tup, yod-yot, bop-bob, yog'-yoq, tog'-toq, tig'-tiq, bog'- boq, qul-kul, tug'ma-tugma, to'q-tiq, qo'1-ko'l, qir-kir"^{vii}. O'quvchilarning yuqoridagi kabi mashqlarni bajarishi yozma nutqidagi imloviy savodxonligining rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Chunki o'quvchi mashqda berilgan so'zlarning talaffuzi va yoziylashi o'rtasidagi farqni bilmasa, albatta, yozma ishlarda talaffuzdagi ko'rinishini yozadi. Masalan; xiyla va hiyla so'zlarini bir-biri bilan almashtirib qo'llasa, gapning ma'no-mazmuni o'zgarib ketadi. “Izohli yozuvda iloji boricha so'zlarni bo'g'inlab aytish, tushunarli qilib talaffuz qilish o'quvchilar tomonidan matnning o'zlashtirilishini osonlashtiradi. O'quvchi, odatda, o'qituvchining ko'rsatmasi bilan ma'lum bir so'zning yoziylashini izohlaydi. So'zning yoziylashi bo'g'in-tovush, tovush-harf tomondan tahlil qilish, qoidani tatbiq etish bilan izohlanadi. Masalan: *Kitob — bilim manbai. Kitob: ki-tob.* 2 bo'g'in. 1-bo'g'inda *k, i* tovushlari bor, ularni *k, i* harflari bilan ifodalash mumkin. 2- bo'g'inda *t, o, b* tovushlari bor, oxirgi *b* tovushi *p* deb talaffuz. qilinadi. Lekin *b* harfi bilan yoziyladi. Uni tekshirib ko'rish ham mumkin. Buning uchun so'z oxiriga - *i* egalik qo'shimchasini qo'shib ko'ramiz, kabi"^{viii}. Izohli yozuv diktantida matndagi so'zlarni bo'g'inlab aytish hamda tushunarli talaffuz qilish orqali o'quvchi matnni oson o'zlashtira oladi. Chunki o'quvchi o'qituvchisining so'zlarni talaffuz qilishiga qarab so'zlarning yoziylashini izohlab yozadi. So'zlarning yoziylashidagi farqni tushuntirishda bo'g'in-tovush, tovush- harf tomondan tahlil qilib qoidani tatbiq etgan holda izohlash o'quvchilarning o'zlashtirilishini osonlashtiradi. Misolda berilgan tahlildagidek barcha so'zlarni tahlil qilgan holda tushuntirib berilsa, o'quvchilarda so'zlarning talaffuzi va yoziylashi to'g'risida tushuncha paydo bo'ladi va to'g'ri yoziygga harakat qiladi.



References:

1. **1 “Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanidan o’quv-uslubiy majmua.** Mazkur o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi 2019-yil 24-avgustdagi 603 - sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan. O’quv-uslubiy majmua O`zbek tili va adabiyoti fakultet kengashining 2019-yil 26-avgustdagi 1-son yig`ilishida muhokama qilingan va qo`llanish uchun tavsiya etilgan.
2. 2.Sh.Bo’ranova. “Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish”. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020, - 24-bet.
3. Sh.Bo’ranova. “Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish”. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020, 38-39-betlar
4. Sh.Bo’ranova. “Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish”. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020, 38-39-betlar
5. Sh.Bo’ranova. “Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish”. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020, 81-82-betlar.
6. . Sh.Bo’ranova. “Ona tili darslarida yozma ishlarni tashkil etish”. – Toshkent: “Tafakkur avlodi”, 2020, 82-83-betlar.
7. **“Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanidan o’quv-uslubiy majmua.** Mazkur o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi 2019-yil 24-avgustdagi 603 - sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan. O’quv-uslubiy majmua O`zbek tili va adabiyoti fakultet kengashining 2019-yil 26-avgustdagi 1-son yig`ilishida muhokama qilingan va qo`llanish uchun tavsiya etilgan.
8. **Yozma ishlarni tashkil etish metodikasi fanidan o’quv-uslubiy majmua.** Mazkur o’quv-uslubiy majmua O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligi 2019-yil 24-avgustdagi 603 - sonli buyrug’i bilan tasdiqlangan dastur asosida tayyorlangan. O’quv-uslubiy majmua O`zbek tili va adabiyoti fakultet kengashining 2019-yil 26-avgustdagi 1-son yig`ilishida muhokama qilingan va qo`llanish uchun tavsiya etilgan.